



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AKTDAN FOYDALANISH

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

SHDPI, Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri,
fan o'qituvchisi

Gadoymurodova Madina Asror qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-
kurs magistranti,

madinagadoymurodova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18261306>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026

Accepted: 14th January 2026

Published: 15th January 2026

KEYWORDS

Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari, boshlang'ich
ta'lim, ta'lim sifati, raqamli ta'lim,
interaktiv metodlar

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning qay darajada muhimlik o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. AKT dan foydalanishning ijobiy tomonlari, tadqiqot usullari hamda ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalari esa o'quvchilarda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, o'qituvchilarda esa pedagogik mahoratni rivojlantirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Globallashuv davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorida ta'lim jarayonini AKT asosida tashkil etish, dars jarayonlarida bevosita axborot texnologiyalaridan foydalanish, eng birinchi navbatda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarda mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, o'quvchilarda kompyuter savodxonligini oshirish zarurligi ta'kidlangan¹. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchilar uchun ma'lumotlarni yetkazish, saqlash, qidirish kabi jarayonlarda muhim o'rin egallaydi. AKT vositalaridan — interaktiv doskalar, elektron darsliklar, ta'limiy platformalar va multimediya dasturlaridan foydalanish darslarni ko'rgazmali, qiziqarli va tushunarli qiladi. Natijada o'quvchilar mavzuni faollik bilan o'zlashtiradi, o'qituvchi esa o'quv jarayonini nazorat qilish, tahlil qilish va baholash imkoniga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun AKT dan foydalanish ularning diqqatini jalb etish, mavzularni ko'rgazmali shaklda tushuntirish va o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, raqamli vositalar yordamida o'qituvchi darslarni interaktiv, amaliy va individual tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. So'nggi yillarda AKTni ta'lim jarayoniga olib kirish bo'yicha olib borilgan bir qancha ishlar boshlang'ich ta'lim sohasida ham o'zining innovatsion samaradorligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining AKTga oid "Raqamli

¹ 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-5120-son qarori, 2021-yil.

ta'lim" konsepsiyasi (2023)da o'quv jarayonini raqamlashtirish, elektron ta'lim resurslarini kengaytirish, dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish eng muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

Mahalliy tadqiqotlarda AKT vositalarining dars samaradorligini oshirishdagi roli, ularni darslarda qo'llash metodikasi va o'qituvchi kompetensiyasi bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Ularning fikricha, AKTdan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va o'zlashtirish sifatini oshiradi. XXI asr axborot texnologiyalar asri ekanligini hisobga olsak, hozirgi zamon bolalarida AKT vositalariga bo'lgan talab juda yuqori va bu o'z-o'zidan pedagoglarning darslarida monitor, kompyuter va televizor kabi axborot texnologiyalaridan foydalanishi o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishining oshishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro manbalar (UNESCO, 2022; OECD, 2021)da AKTni ta'lim tizimiga jalb qilish o'quvchilarning kreativlik, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aytib o'tiladi. Xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers" hujjatida o'qituvchilarning AKTdan foydalanish bo'yicha kasbiy malakasini oshirish ta'lim sifatining muhim omili sifatida ko'rsatilgan. Xalqaro tadqiqotlarda ham bu yo'nalish chuqur tahlil qilingandi. Mazkur hujjatda o'qituvchi faqat texnologiyadan foydalanish bilan cheklanmasdan, uni o'quv jarayoniga didaktik maqsadlarga mos tarzda integratsiya qila olishi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun undan samarali foydalanishi lozimligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish qog'ozbozlikni kamaytirish va o'quvchilarni hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan raqamli texnologiyalarga asoslangan kasblarga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shu o'rinda dars davomida o'rganilgan boshlang'ich kompyuter savodxonligi uning kelajakda egallayotgan har qanday kasb turiga zamin yarata oladi.

Shuningdek, G'arb olimlari — Anderson (2020), Hennessy va London (2021) tadqiqotlarida boshlang'ich ta'limda multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuningdek, OECD (2021) hamda Anderson (2020) kabi xorijiy manbalarda AKT vositalari yordamida darslarni individuallashtirish, onlayn baholash tizimlaridan foydalanish va raqamli platformalar orqali o'qitish jarayonini boshqarishning ijobiy ta'siri qayd etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AKTdan samarali foydalanishning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'qituvchilarning raqamli savodxonligi va metodik tayyorgarlik darajasi;
2. Ta'lim muassasalarining texnik bazasi va internet infratuzilmasi;
3. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, sifatli elektron o'quv resurslarining mavjudligi.

Ushbu omillar shuni ko'rsatdiki, elektron ta'lim infratuzilmasini yaratish uchun avvalo unga tayyorgarlik bosqichlari mukammal tashkillashtirilgan, texnik baza yaratilgan va malakali mutaxassislar jalb qilingan bo'lishi zarur va bu omillar o'z o'rnida ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olgan holda tashkillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AKT vositalarini o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarni faollikka undaydi, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan

shaklga keltiradi, o'qituvchilar faoliyatini metodik jihatdan boyitadi, va ta'lim sifatini monitoring qilishni yengillashtiradi. Biroq, ayrim muammolar ham mavjud:

1. Qator maktablarda texnik jihozlar yetishmaydi va o'quvchilarni jalb qilinish darajasi juda past.

2. Ba'zi o'qituvchilarning AKT bilan ishlash ko'nikmasi past.

3. Internet tezligi va uzilib qolish holatlari ta'lim sifatiga bevosita ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun AKT ni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, maktablarni texnik jihozlash, va ta'lim kontentini milliy sharoitga moslashtirish zarur. AKT vositalarini ta'lim jarayoniga jalb qilish uchun birinchi navbatda pedagoglarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va tekshirib ko'rish zarur. Aks holda AKT savodxonligi mavjud bo'lmagan pedagog kadrlarda dars jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish va o'quvchilarga yetkazib berish ko'rsatkichi past darajani qayd etishi mumkin.

Kuzatuv metodi orqali biz dars jarayonida AKT dan foydalanish natijasida erishiladigan yutuqlarning bir qanchasini ko'rishimiz mumkin. Bularga biz quyidagilarni misol qilib keltiramiz:

1. Ta'lim mazmunini boyitish

2. Multimedia vositalari orqali o'quvchilarni osongina jalb qilish

3. virtual laboratoriya mashg'ulotlarini amalga oshirish

4. onlayn musobaqalar va tanlovlarda ishtirok etish malakasini shakllantirish

5. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish

O'rganilgan va kuzatilgan tajribalar aspsida quyidagi natijalarga va fikrlarga ega bo'lamiz:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining bajarilishini nazorat qilish;
- ta'lim oluvchining shaxsiychanqoqligini oshirish (o'zlashtirib olish, bilimga ega bo'lish, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga mashq qilish, ijodiy mehnatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olish, o'zlashtirish, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy tizimini rivojlantirish;
- kompyuter va axborot resurslari orqali har bir shaxsning tegishli (individual ta'lim olishi hisobiga va masofaviy resurslarni individuallashtirish va uning hajmi darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub'ekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy va individual foydalanish mumkin bo'lishi;
- mustaqil o'quv olib boradi, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy yutuqlarini qo'llash uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuvga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'tarishini hosil qilish

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda AKT dan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili va bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda AKT yordamida: darslar ko'rgazmali, interaktiv va samarali bo'ladi; o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi; o'qituvchilar uchun yangi metodik imkoniyatlar yaratiladi va ularning ma'lumotlar bazasi kengayadi. Dars davomida qog'ozbozlik holatlari kamayadi va

o'qituvchining vaqti tejraladi. Iqtisodiy jihatdan o'qituvchi uchun juda foydali. Kelajakda AKT ni o'quv jarayonining barcha bosqichlariga joriy etish o'qituvchilarni muntazam raqamli ta'lim kurslariga jalb qilish, va har bir fan uchun interaktiv platformalarni yaratish zarur. Matn, rasm, audio, video materiallar orqali tushunish darajasi oshadi. Qiyin mavzularni vizual misollar bilan tushuntirish orqali abstrakt tushunchalar osonroq qabul qilinadi. Har bir o'quvchining ehtiyojiga mos materiallar (masalan, turli darajadagi interaktiv topshiriqlar) taqdim etish mumkin. Shunday qilib, kuchli o'quvchilarni ham, qo'shimcha yordam kerak bo'lganlarni ham alohida qo'llab-quvvatlash imkoni paydo bo'ladi.

AKT platformalar yordamida o'quvchilarning ishlari tez ko'rib chiqilishi, xatoliklar aniqlanib, darhol tuzatishlar berilishi mumkin. Bu o'z navbatida o'qituvchi uchun ham samarali nazorat vositasidir. O'qituvchilarga muntazam kurslar va seminarlar orqali malaka oshirish imkonini yaratish.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-5120-son qarori, 2021-yil.
2. Karimova N. Boshlang'ich ta'limda AKT dan foydalanish metodikasi. – Toshkent: O'zMU, 2023.
3. Yuldashev S.N, Imomov M.P. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Toshkent "Fan va texnologiyalar nashriyoti -matbaa uyi",2023 .- 147 b
4. .Xodjayeva, N. Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 156 b.
5. Tursunova, D. AKT vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. // Boshlang'ich ta'lim jurnali. — 2022. — №4. — B. 45–51.
6. .Yusupov, M. Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarining o'rni. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 112 b
7. Niyozova, G. Boshlang'ich ta'lim tizimida elektron resurslardan foydalanish. // Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — 2021. — №2. — B. 31–33b
8. O'rinboyeva, S. Elektron darsliklar va ularni boshlang'ich sinfda qo'llash. // Pedagogika va innovatsiya. — 2023. — №6. — B. 72–78.
9. Mavlonova, R., To'xliyeva, N. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2017. — 242 b.
10. Maqsudov, U.Q. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarining istiqbollari. -Toshkent: Fan ,2022.